

EKOLOGIK TA'LIM VA EKOLOGIK TARBIYA – ATMOSFERA MUSAFFOLIGINING ASOSIDIR

Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna
FarDU, Kimyo kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik ta'lism va tarbiya elementlarini yosh avlodning ongiga, qalbiga qanday singdirish mumkinligi xaqida muloxaza qilingan, ekologik tarbiya va ekologik ta'lism xamoxanglikda olib borilsa natija yaxshi bo'lishligi tushuntirilgan.*

Kalit so'zlar: *Atmosfera, ekologik ong, ekologik madaniyat, tarbiya, ta'lism,*

Tabiatdan foydalanishda iqtisodiy mehanizmni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda tabiiy muhitning me'yoridan ortiq ifloslanganligi, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun jarima va to'lovlar joriy qilingan. Buning natijasida to'plangan mablag'lar turli ekologik tadbirlarga sarflanishi mumkin. O'zbekistonda yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish jarayonida tabiatdan foydalanishning o'ziga xos iqtisodiy mexanizmi shakillanmoqda. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyotining amaliyotga tadbiq etilishi "Inson va tabiat" o'ryasidagi munosabatlarni muvozanatga keltirishda muhim ro'l o'ynaydi. Tabiatni muxofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va ekoogik sharoitlarni yaxshilashda ekologik ta'lism tarbiya muhim ro'l o'ynaydi. Turli mamlakatdagi ekologik vaziyat, tabiatdan foydalanish xususiyatlari ko'p jihatdan aholining ekologik savodxonlik darajasi, ekologik madaniyatga bog'liqdir. Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi. Ekologik ta'lism va tarbiya bog'chadan oliv o'quv yurlarigacha uzluksiz davom etishi lozim. Tabiatga mexr-insonlarga oqibatdir. Prezidentimiz raisligida joriy yilning 2-fevralida "Ekologik holatni yaxshilash va "Yashil makon" umummiliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha ustivor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ko'tarilgan ezgu tashabbus qalbimizda Ona tabiatga nisbatan insoniylik tuyg'ularni junbushga keltirdi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutmasak, ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz". Bunday shunday xulosa kelib chiqadi: O'zbekistonda ekologiya, tabiatdan foydalanish, atrof-muhit muhofazasi va barqaror taraqqiyot bilan bog'liq muammolar o'z yechimini kutayotgan birinchi darajali muammolar sifatida e'tirof etildi va qalbida imoni bo'lgan barcha insonlarni amaliy xatti-harakatga chorladi, shijoat va g'ayrat bilan olg'a yurishga ilhomlantirdi. Mamlakatimizda uzluksiz ekologik ta'lism tizimini samarali yo'lga qo'yish orqali aholining jamiyatning ekologik madaniyatini oshirish mumkin. Gap shundaki, aholining, birinchi navbatda, uzluksiz ta'lism tizimida tahsil olayotgan o'quvchi va talaba yoshlarda ekologik ong va

madaniyatni shakllantirmasdan, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasiga sarflanayotgan har qancha mablag'lar bilan muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Shunday ekan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yosh avlod qalbida Ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini o'z vaqtida tarbiyalashimiz lozim. Biz "tabiat va insonning birligi, uyg'un rivojlanishi — eng oliv qadriyat", "odam — tabiatning egasi emas, balki uning tarkibiy qismi" qabilida yangicha ekologik fikrlashga o'tishimiz, o'zimiz yashayotgan atrof-muhitni chuqur bilishimiz, buning uchun ilm-ma'rifatli, ekologik madaniyatli bo'lishimiz lozim. Bu esa, eng avvalo, ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'lim va tarbiyaning qay darajada yo'lga qo'yilishiga bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. K. Saparov, b.f.d., professor.
"Ekologik ta'lim — tabiat musaffoligining muhim omili"
2. Yormatov D. Norqulov A. Avazov Sh. Sultonov N. Sanoat ekologiyasi «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti. Toshkent 2007 y.
3. Otaboyev S. Nabihev M. Inson va biosfera. T. O'qituvchi . 1995. 307 b.
4. To'xtayev A, Xamidov A, Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. O'qituvchi .1994.